


Farg'ona viloyatining  
Tashqi savdo aylanmasi  
(2018 yil yanvar-sentabr)


Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi,  
mln. AQSh dollari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 1086,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 58,0 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 417,1 mln. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 9,2 %) va import hajmi 669,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 18,7 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 252,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018 yilda  
tovarlarning oylik  
eksport-import  
ko'rsatkichlari  
dinamikasi**  
mln. AQSh dollari



2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

Farg'ona viloyatida tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,0 % oshdi va 58,4 % ga yetdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 48,6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi 41,6 %ga tushdi.

Farg'ona viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)

	Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi		
					ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %	
	Rossiya	291,4	97,0	194,4	26,8	1,9 b	↑
	Xitoy	247,1	86,6	160,5	22,7	1,8 b	↑
	Qozog'iston	233,6	80,6	153,1	21,5	176,2	↑
	Qirg'iziston	75,2	45,3	29,9	6,9	1,9 b	↑
	Turkiya	41,7	24,6	17,1	3,8	88,1	↓
	Koreya Respublikasi	19,8	4,7	15,1	1,8	73,4	↓
	Polsha	16,5	15,4	1,1	1,5	106,0	↑
	Germaniya	16,1	1,5	14,5	1,5	2,0 b	↑
	Bangladesh	14,2	14,2	0,0	1,3	127,6	↑
	Tojikiston	12,3	5,3	7,0	1,1	107,8	↑
	Hindiston	12,1	0,2	11,9	1,1	5,6 b	↑
	Turkmaniston	9,0	0,5	8,6	0,8	146,2	↑
	Latviya	8,6	1,0	7,6	0,8	133,6	↑
	Ukraina	6,6	3,4	3,2	0,6	72,8	↓
	Yaponiya	6,3	0,3	6,0	0,6	4,3 b	↑
	Eron	5,7	3,0	2,7	0,5	44,4	↓
	Shveytsariya	5,4	0,0	5,4	0,5	3,1 b	↑
	Chehiya	5,4	1,4	4,0	0,5	2,2 b	↑
	Litva	5,4	1,4	3,9	0,5	2,6 b	↑

(mln. AQSh dollari)

	Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
					ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %



Italiya

4,9

0,4

4,5

0,4

50,3




**Farg'ona viloyat  
eksporti**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-sentabr oylarida eksport hajmi 417,1 mln. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 9,2%) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,6 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (37,3 %), shuningdek, energiya manbaalari va neft mahsulotlari (5,0 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,55 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>417,1</b>	<b>109,2</b>	<b>100,0</b>	<b>235,5</b>	<b>119,9</b>	<b>100,0</b>	<b>181,5</b>	<b>97,9</b>	<b>100,0</b>
Paxta tolasi	1,0	8,3	0,2	0,0	-	0,0	1,0	8,3	0,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	155,6	161,7	37,3	149,2	164,8	63,3	6,4	111,9	3,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	2,3	5,6	0,5	2,1	7,0	0,9	0,2	1,9	0,1
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	21,0	152,6	5,0	10,8	219,0	4,6	10,2	115,4	5,6

Qora va rangli metallar	0,02	42,0	0,0	0,02	42,0	0,0	0,00	-	0,00
Mashina va asbob uskunalar	0,6	165,2	0,1	0,6	162,8	0,2	0,02	322,5	0,01
Xizmatlar	5,9	119,7	1,4	4,2	132,5	1,8	1,6	95,7	18,9
Boshqalar	230,7	107,8	55,3	68,7	101,1	29,1	162,0	111,0	39,6

**eksport  
tarkibi, %**



Farg'ona viloyatidan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 42,6 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar bilan  
eksport tarkibi  
(yanvar-sentabr oylari)**

(ming. AQSh doll.)


	Rossiya Federatsiyasi		Qozog'iston Respublikasi	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
<b>Jami eksport</b>	<b>84096,6</b>	<b>96985,1</b>	<b>60503,3</b>	<b>80553,6</b>
paxta tolasi	0,0	0,0	0,0	0,0
oziq-ovqat mahsulotlari	29432,4	36484,0	50692,8	74760,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	2965,7	32,2	1163,4	202,2
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,0	0,0	3139,4	3484,2
qora va rangli metallar	0,0	0,0	7,3	7,0
mashina va asbob-uskunalar	328,8	418,7	0,0	10,2
xizmatlar	3193,7	4166,6	2,7	14,5
boshqalar	48175,9	55883,7	5497,7	2074,7

**Meva-sabzavot  
mahsulotlari  
eksporti**

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida jami 145,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 153,8 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 63,1 %).





Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar- sentabr oylarida 82,1 ming tonna meva va rezavorlar 117,1 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,5 ming tonnaga ko'pdir. Shuningdek, 41,9 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 18,4 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

**Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi**



**Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining  
asosiy bozorlari eksport geografiyasi**

Davlat nomi	2017 yil yanvar-sentabr	2018 yil yanvar- sentabr
-------------	-------------------------	--------------------------

		ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
	Qozog'iston	57,6	50,0	53,1	55,6	74,0	48,1
	Rossiya	43,2	29,2	31,0	47,5	36,0	23,4
	Qirg'iziston	15,2	9,7	10,3	32,3	36,0	23,4
	Afg'oniston	2,4	2,3	2,4	3,2	2,6	1,7
	Ukraina	0,2	0,1	0,1	1,6	1,0	0,7
	Turkiya	0,8	1,0	1,1	0,7	0,6	0,4




**Farg'ona  
viloyatining  
importi**

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 669,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 2,2 b) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbalari va neft mahsulotlari (35,0%), va mashina uskunalari (23,5 %) hamda qora va rangli metallar (9,4 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>669,4</b>	<b>2,2 b</b>	<b>100,0</b>	<b>398,9</b>	<b>2,5 b</b>	<b>100,0</b>	<b>270,5</b>	<b>1,8 b</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	54,5	2,0 b	8,1	41,9	1,9 b	10,5	12,6	2,2 b	4,6
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	54,2	137,3	8,1	15,0	2,3 b	3,8	39,2	118,4	14,5
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	234,0	2,9 b	35,0	233,6	2,8 b	58,6	0,4	2,2 b	0,1
Qora va rangli metallar	62,8	3,6 b	9,4	21,1	2,8 b	5,3	41,7	4,1 b	15,4
Mashina va asbob uskunalari	157,1	1,8 b	23,5	8,5	138,9	2,1	148,6	1,9 b	54,9
Xizmatlar	4,7	131,6	0,7	0,2	20,7 b	0,0	4,5	126,8	1,7
Boshqalar	102,2	1,9 b	15,3	78,6	2,3 b	19,7	23,6	118,2	8,7

**Import tarkibi, %**



Xizmatlar importi hajmi 4,7 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,6 % ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.


**Farg'ona viloyat  
importida asosiy  
hamkor  
davlatlarning hajmi,  
mln. AQSh doll.**



2018 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatga 70 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 555,0 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 82,9 %ini tashkil qiladi.

**2018 yil yanvar-  
sentabr oylarida  
tovarlar importi  
dynamikasi**  
(oylar kesimida, mln.  
AQSh dollari)

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida viloyat import qilinayotgan tovarlar hajmi iyun oyida eng yuqori ko'rsatkichni qayd etib, sentabr oyida avgust oyiga nisbatan qiymati 35,9 mln. AQSh dollariga ko'proq tovarlar import qilindi va 88,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



So'nggi yillarda ichki ishlab chiqaruvchilarimizning tashqi bozorda mustahkam o'rin egallashlari va ularning eksportga qaratilgan faoliyatini mustahkamlash maqsadida, Hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojhona imtiyozlari va boshqa imkoniyatlarni yaratilishi natijasida korxonalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni olib kirib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi va tashqi bozorlarda o'z o'rinlarini egallashlari uchun zamin yaratilmoqda.



T  
e  
l  
:  
7  
1  
-  
2  
3  
0  
-  
8  
7  
-  
1  
8